

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**ANORGANIK KIMYO FANINI MODULLI TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI**

*Mamarajabov D.M., Hazratqulov M.D.,
Julboev T.A., Xolboyev O.N., dots Sulstonov M.M.,*
Jizzax Davlat Pedagogik Instituti

Аннотация: Модульная образовательная технология направлена на активную организацию учебной деятельности учащихся, с помощью которой личность обучающегося получает возможность осваивать и развивать обучение, быстро и глубоко осваивать самостоятельно ориентированный учебный материал.

Abstract: Modular educational technology is aimed at the active organization of students' learning activities, with the help of which the student's personality gets the opportunity to master and develop learning, quickly and deeply master self-oriented educational material.

Ключевые слова: модуль, образование, знания, умения, профессиональная педагогика, неорганическая химия, технология совместного обучения, интерактивные методы

Keywords: module, education, knowledge, skills, professional pedagogy, inorganic chemistry, collaborative learning technology, interactive methods

Modulli ta'lim eng avval o'quvchining o'quv faoliyatini faol tashkil etishga qaratilgan bo'lib, uning yordamida o'quvchi shaxsining namoyon bo'lishi va rivojlanishi, o'quv materiallarini tez va chuqur mustaqil o'zlashtirib olishi, o'z-o'zini nazorat qilib borishi uchun keng imkoniyat yaratib beriladi [1]. Modul texnologiyasi o'quv topshiriqlarini o'quvchining yakka o'zi yoki kichik guruxlarda kollektiv bo'lib, modulda keltirilgan tavsiyalar asosida bajarishi, topshiriqlarga fikrlab javob topishi, o'z bilimini munozara orqali mustahkamlashi va yanada kengaytirishiga mo'ljallangan.

O'quv jarayoninig maqsadi uning zaruriy samaradorligini ta'minlash va o'quvchilar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishishdir. Ma'lumki, kimyo o'quv fanlari asoslari bilimlarini o'zlashtirib olishning metodlari va texnologiyalarini o'rgatadi. Har qanday fanni o'qitishning ta'limiy masalalari bilan birgalikda jamiyatning, rivojlantirishda asosiy tarbiyaviy masalalari ham mavjuddir. Ayniqsa, kimyo o'qitishda tarbiyaning hamma turlarini o'quvchilar ongida muvafaqqiyat bilan shakllantirish mumkin[2.3].

Modul texnologiyasi o'quv topshiriqlarini o'quvchining yakka o'zi yoki kichik guruhlarda kollektiv bo'lib, modulda keltirilgan tavsiyalar asosida bajarishi,

topshiriqlarga fikrlab javob topishi, o'z bilimini munozara orqali mustahkamlashi va yanada kengaytirishiga mo'ljallangan. Fan o'qituvchilari oldida turgan vazifa Umumta'lim maktablarida anorganik kimyo fanini oq'itish, uni modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, ularda mavjud bilimlar asosida amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantirish asosida kasbiy-pedagogik faoliyatga innovatsion yondoshish, innovatsion xarakterdagi ilg'or g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;

- o'qitishni individuallashtirish;

- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi.

Bu yondashuvlar doirasida modul asosida mutaxassislar tayyorlashning bir qator konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Barcha konsepsiyalar zamirida faoliyat yondashuvi yotadi va bu nuqtai nazardan, o'qitish jarayoni to'laligicha yoki muayyan fan doirasida, modulli ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini o'quvchi tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi [4].

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;

- o'qitishni individuallashtirish;

- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;

- o'qitishni jadallashtirish;

- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Ta'limning samarali natijalar berishi, eng avvalo, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatiga, qo'llaniladigan ta'lim usullari texnologiyalarga bog'liqligini har bir pedagog yaxshi biladi [5]. Shuning uchun ta'lim jarayonida har bir o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, o'zaro tushunish, ijobiy munosabatlarga asoslangan holda muloqotli, ijodiy ishlashni yo'lga qo'yishni erishishga intilish lozim. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila

bilish, sogʻlom muloqot, munozara, bahs olib borish koʻnikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Anorganik kimyo oʻquv fani taʼlimni modulli oʻqitish texnologiyasi, innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etish oʻquvchilarni fanga boʻlgan qiziqishini oshishiga, faol boʻlishga, tanqidiy fikrlashga undashi, oʻquv materialini mustaqil oʻzlashtirishga, nazariy bilimlarni amaliy qoʻllashga yoʻnaltirish, olgan bilimlarini oʻzlari baholash uchun imkoniyat yaratuvchi oʻqitish vositasi ekanligi eʼtirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. “Toshkent” 2008 yil.
2. E.Lutfullayev va boshqalar Anorganik kimyo. Samarqand 2009 yil
3. Raxmatullaev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov SH.M. Kimyo oʻqitish metodikasi(darslik). T. «Iqtisod-Moliya» 2013 y
4. Julboev T.A, Sulstonov M.M, Babayev B.N. Kredit- modul tizimida kimyo fanidan talabalarda mustaqil taʼlim olish koʻnikmasini rivojlantirish usullari. “Бошланғич таълимнинг замонавий тенденциялари: таълим ва тарбия. интеграцияси” II Халқаро илмий-амалий конференцияси Жиззах шаҳри, 2022 йил 27 апрель. Жиззах – 2022.
5. Julboev T.A, Sulstonov M.M. Abduvaliyeva K.X. Teaching Chemistry computer software to students of chemistry in pedagogical higher education institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.Vol. 9 No. 3, 2021. ISSN 2056-5852.
6. <http://www.idpublications.org/ejrres-vol-9-no-3-2021/>